


## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 11 969 tani tashkil etdi, shundan 9 825 tasi yoki 82,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



*Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda).*



Soni



O'sish sur'ati

| Yil         | Korxona va<br>tashkilotlar | shundan:                    |                              |
|-------------|----------------------------|-----------------------------|------------------------------|
|             |                            | Tadbirkorlik<br>subyektlari | shundan:                     |
|             |                            |                             | Kichik biznes<br>subyektlari |
| <b>2025</b> | 11 969                     | 9 899                       | 9 825                        |
| <b>2024</b> | 11 907                     | 9 880                       | 9 811                        |
| <b>2023</b> | 13 777                     | 11 630                      | 11 564                       |
| <b>2022</b> | 17 250                     | 15 096                      | 15 028                       |
| <b>2021</b> | 15 899                     | 13 837                      | 13 783                       |

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Guliston shahrida – 24,6 foiz, Sirdaryo – 12,4 foiz, Boyovut – 9,0 foiz, Sardoba – 8,9 foiz va Mirzaobod – 8,5 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Yangiyer shahrida – 88,5 foiz, Sardobada – 88,0 foiz, Mirzaobod – 85,3 foiz hamda Oqoltin – 84,7 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

| Hududlar                   | Korxona va<br>tashkilotlar | shundan:                    |                              |
|----------------------------|----------------------------|-----------------------------|------------------------------|
|                            |                            | Tadbirkorlik<br>subyektlari | shundan:                     |
|                            |                            |                             | Kichik biznes<br>subyektlari |
| <b>Sirdaryo viloyati</b>   | <b>11 969</b>              | <b>9 899</b>                | <b>9 825</b>                 |
| <i>Tuman va shaharlar:</i> |                            |                             |                              |
| Guliston shahri            | 2 941                      | 2 393                       | 2 371                        |
| Yangiyer shahri            | 907                        | 803                         | 801                          |
| Shirin shahri              | 293                        | 229                         | 226                          |
| Boyovut tumani             | 1 081                      | 861                         | 857                          |
| Guliston tumani            | 871                        | 714                         | 712                          |
| Mirzaobod tumani           | 1 019                      | 869                         | 859                          |
| Oqoltin tumani             | 769                        | 651                         | 650                          |
| Sayxunobod tumani          | 1 070                      | 942                         | 936                          |
| Sardoba tumani             | 782                        | 627                         | 620                          |
| Sirdaryo tumani            | 1 483                      | 1 230                       | 1 217                        |
| Xovos tumani               | 753                        | 580                         | 576                          |

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida bo'lib, uning jami korxonalar sonidagi ulushi 29,6 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 16,8 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,8 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 56,2 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



### Korxona va tashkilotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari                         | Korxona va tashkilotlar | shundan:                 |                           |
|----------------------------------------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------------|
|                                                    |                         | Tadbirkorlik subyektlari | shundan:                  |
|                                                    |                         |                          | Kichik biznes subyektlari |
| <b>Jami:</b>                                       | <b>11 969</b>           | <b>9 899</b>             | <b>9 825</b>              |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 2 012                   | 1 996                    | 1 985                     |
| Sanoat                                             | 1 169                   | 1 162                    | 1 134                     |
| Qurilish                                           | 828                     | 818                      | 813                       |
| Savdo                                              | 3 547                   | 3 546                    | 3 540                     |
| Tashish va saqlash                                 | 273                     | 271                      | 270                       |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 725                     | 723                      | 722                       |
| Axborot va aloqa                                   | 222                     | 211                      | 209                       |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 210                     | 152                      | 148                       |
| Boshqa turlar                                      | 2 983                   | 1 020                    | 1 004                     |

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, 9 899 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 8 616 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

### *Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)*

|                                | 2021   | 2022   | 2023  | 2024  | 2025  |
|--------------------------------|--------|--------|-------|-------|-------|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat | 10 630 | 11 857 | 9 770 | 8 474 | 8 616 |
| Xususiy korxonalar             | 2 499  | 2 473  | 1 302 | 962   | 873   |
| Oilaviy korxonalar             | 351    | 362    | 282   | 271   | 258   |
| Aksiyadorlik jamiyati          | 22     | 21     | 11    | 11    | 12    |
| Boshqalar                      | 335    | 383    | 265   | 162   | 140   |

Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

| Tashkiliy-huquqiy shakli       | Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda) | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda) |
|--------------------------------|------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| Mas'uliyati cheklangan jamiyat | 8 616                                    | 87,0                                                         |
| Xususiy korxonalar             | 873                                      | 8,8                                                          |
| Oilaviy korxonalar             | 258                                      | 2,6                                                          |
| Aksiyadorlik jamiyati          | 12                                       | 0,1                                                          |
| Boshqalar                      | 140                                      | 1,5                                                          |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida, iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo tumani 27,0 foiz, Guliston shahri – 19,6 foiz, Yangiye shahri – 13,7 foiz va Mirzaobod tumani – 7,8 foizga to'g'ri keladi.


| Hududlar                 | Jami:      | shundan:           |                    |
|--------------------------|------------|--------------------|--------------------|
|                          |            | qo'shma<br>korxona | xorijiy<br>korxona |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>270</b> | <b>90</b>          | <b>180</b>         |

*Tuman va shaharlar:*

|                   |    |    |    |
|-------------------|----|----|----|
| Guliston shahri   | 53 | 15 | 38 |
| Shirin shahri     | 20 | 4  | 16 |
| Yangiye shahri    | 37 | 10 | 27 |
| Boyovut tumani    | 19 | 3  | 16 |
| Guliston tumani   | 10 | 2  | 8  |
| Mirzaobod tumani  | 21 | 12 | 9  |
| Oqoltin tumani    | 4  | 2  | 2  |
| Sardoba tumani    | 6  | 3  | 3  |
| Sayxunobod tumani | 9  | 3  | 6  |
| Sirdaryo tumani   | 73 | 32 | 41 |
| Xovos tumani      | 18 | 4  | 14 |

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 270 ta korxonalardan 90 tasi qo'shma korxonalar va 180 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 58 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 104 tadan 131 taga, (o'sish 27 taga), axborot va aloqa sohasida 18 tadan 38 taga (o'sish 20 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 25 tadan 28 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

|                                                    | Jami:      | shundan:        |                 |
|----------------------------------------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                                                    |            | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| <b>Jami:</b>                                       | <b>270</b> | <b>90</b>       | <b>180</b>      |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 28         | 15              | 13              |
| Sanoat                                             | 131        | 49              | 82              |
| Qurilish                                           | 6          | 3               | 3               |
| Savdo                                              | 43         | 12              | 31              |
| Tashish va saqlash                                 | 7          | 4               | 3               |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 5          | 1               | 4               |
| Axborot va aloqa                                   | 38         | -               | 38              |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | -          | -               | -               |
| Boshqa turlar                                      | 12         | 6               | 6               |

### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 108 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 40,0 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (12,6 %), Turkiya (8,1 %), Qozog'iston (7,4 %) va Tojikiston (6,3 %) ham alohida o'rin egallaydi.

| Davlatlar       | Jami: | shundan:        |                 |
|-----------------|-------|-----------------|-----------------|
|                 |       | Qo'shma korxona | Xorijiy korxona |
| Xitoy           | 108   | 32              | 76              |
| Rossiya         | 34    | 11              | 23              |
| Turkiya         | 22    | 8               | 14              |
| Tojikiston      | 17    | 4               | 13              |
| Qozog'iston     | 20    | 10              | 10              |
| Afg'oniston     | 15    | 5               | 10              |
| Qirg'iziston    | 8     | 3               | 5               |
| BAA             | 10    | 2               | 8               |
| Buyuk Britaniya | 8     | 4               | 4               |
| Janubiy Koreya  | 8     | 2               | 6               |
| Ozarbayjon      | 4     | 3               | 1               |
| Pokiston        | 4     | 1               | 3               |
| AQSH            | 4     | 2               | 2               |

#### **IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### **Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Raqamlashtirish va statistik  
regisrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**

B. Axmedov  
67 236-70-00 (2060)

**Maznil:**

120100, Guliston sh.,  
Birlashgan ko'chasi, 62

---